



UDK 81'23:81'37:81'42

Asila ABDURAXMONOVA,

TDSHU Tilshunoslik, tarjimahunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tayanch doktoranti

E-mail: asilaabdurakhmonova04@gmail.com

KONSEPTUAL METAFORA NAZARIYASI: KOGNITIV VA DISKURSIV YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada konseptual metafora nazariyasi tahlil qilinish bilan birga konseptual metaforalar kognitiv va diskursiv yondashuvlar orqali o'rganiladi. Tadqiqotda metaforaning faqat badiiy vosita sifatida emas, balki inson tafakkurini tashkil etuvchi muhim kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Kognitiv tilshunoslik doirasida konseptual metafora inson ongida abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglash va strukturalash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Maqolada konseptual metaforaning konsept, freym, prototip va tajribaviy bilim bilan o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi hamda uning diskursiv muhitda qanday funksional ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, metaforaning ma'no hosil qilish, baholash, ta'sir o'tkazish va ideologik pozitsiyani shakllantirishdagi roli misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari konseptual metaforaning til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi murakkab kognitiv hodisa ekanini ko'rsatadi

Kalit so'zlar: konseptual metafora, diskurs, kognitiv yondashuv, zamonaviy tilshunoslik, diskursiv yondashuv, maqsad domeni, manba domeni, xaritalash.

CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: COGNITIVE AND DISCURSIVE APPROACH

Annotation

This article analyzes the theory of conceptual metaphor and studies conceptual metaphors through cognitive and discursive approaches. The study substantiates the manifestation of metaphor not only as an artistic tool, but also as an important cognitive mechanism that organizes human thinking. Within the framework of cognitive linguistics, conceptual metaphor is interpreted as a process of understanding and structuring abstract concepts in the human mind through concrete experience. The article examines the relationship of conceptual metaphor with concept, frame, prototype and experiential knowledge, and analyzes its functional significance in a discursive environment. It also reveals the role of metaphor in creating meaning, evaluating, influencing and forming an ideological position based on examples. The results of the study show that conceptual metaphor is a complex cognitive phenomenon that reflects the inextricable link between language and thinking.

Keywords: conceptual metaphor, discourse, cognitive approach, modern linguistics, discursive approach, target domain, source domain, mapping.

ТЕОРИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ: КОГНИТИВНЫЙ И ДИСКУРСИВНЫЙ ПОДХОД

Аннотация

В данной статье анализируется теория концептуальной метафоры и изучаются концептуальные метафоры с помощью когнитивного и дискурсивного подходов. Исследование обосновывает проявление метафоры не только как художественного инструмента, но и как важного когнитивного механизма, организующего человеческое мышление. В рамках когнитивной лингвистики концептуальная метафора интерпретируется как процесс понимания и структурирования абстрактных понятий в человеческом сознании посредством конкретного опыта. В статье рассматривается взаимосвязь концептуальной метафоры с понятием, рамкой, прототипом и эмпирическим знанием, а также анализируется ее функциональное значение в дискурсивной среде. Также раскрывается роль метафоры в создании смысла, оценке, влиянии и формировании идеологической позиции на основе примеров. Результаты исследования показывают, что концептуальная метафора — это сложный когнитивный феномен, отражающий неразрывную связь между языком и мышлением.

Ключевые слова: концептуальная метафора, дискурс, когнитивный подход, современная лингвистика, дискурсивный подход, целевая область, исходная область, сопоставление.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda shakllangan kognitiv paradigma tilni inson tafakkuri va umumiy kognitiv faoliyatidan ajratib bo'lmaydigan hodisa sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til mustaqil va yopiq tizim emas, balki insonning idroki, tajribasi, xotirasi hamda dunyoni anglash jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab kognitiv mexanizmdir. Shuning uchun ham kognitiv tilshunoslik til birliklarini faqat formal tuzilma sifatida emas, balki insonning dunyoni qanday idrok etishi va konseptualizatsiya qilishi bilan bog'liq jarayonlari orqali izohlaydi. So'z yoki grammatik shakl tashqi reallikdagi obyektga bevosita ishora qilmaydi, aksincha, ushbu obyekt haqidagi mental tasavvur va tajribaga asoslangan konseptni faollashtiradi. Mazkur yondashuvda konsept ma'noning markaziy birligi hisoblanadi. Konsept insonning individual va

ijtimoiy tajribasi, madaniy bilimlari kognitiv faoliyati asosida shakllangan mental tuzilma bo'lib, til birliklari ana shu tuzilmalarni ramziy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asr boshlaridan 1970-yillarga qadar I.A.Richards va Max Black metafora - so'zlarga poetik bezak berishdan ko'proq vazifa bajarishi haqida yozishadi. Xususan, I.A.Richards Aristotel nazariyasini tahlil qilar ekan, metaforani o'xshatishning eng yaxshi ko'rinishi deya tavsiflaydi. O'xshashlik ko'zi ba'zi odamlarda bor bo'lgan tug'ma talant hisoblanadi. Ammo biz barchamiz o'xshatish ko'zlarimiz orqali gapiramiz va yashaymiz [1]. Metafora tilning alohida va o'zgacha qismi emas, balki til va fikrning markaziy qismi sifatida tahlil qilinadi. Metafora faqat poetik va she'riy satrlarda emas balki, oddiy nutqda ham qo'llanuvchi, fikr yuritish va ifodalashning

tabiiy usuli sifatida qaraladi – biz hamma narsani, jumladan bir mavhum tushunchani boshqa bir tushunchaga bog'lab tushunamiz. Richards metaforani asosiy ikki qismga ajratib, asosiy tushuncha va g'oyani beruvchi so'zni TENOR, aytilayotgan asosiy fikrni ifodalovchi obrazli so'z yoki iborani esa VEHICLE deb nomlaydi. Olim metafora yozuvchi va shoirlarga xos istiloh emas, balki har bir til foydalanuvchi egallashi mumkin bo'lgan til ustaligini ko'rsatib beruvchi qobiliyat ekanligi haqida fikr yuritadi.

Ushbu davrda metaforani o'rgangan yana bir tadqiqotchi olim Max Black ham I.A.Richards singari metafora shunchaki bezakdan ko'ra ko'proq ma'noga ega ekanligi haqida to'xtaladi. Olim metaforani falsafa bilan bog'lar ekan, falsafada metafora fikrni chalg'ituvchi vosita ekanini ta'kidlaydi. Agar faylasuf gapirayotgan gapida metafora ishlatsa bu faylasufning "aniq gapirmayotganligiga" misol bo'ladi. Tilshunos olim esa bu fikrga qarshi chiqqan holda, metafora fikrni adashtiruvchi emas, balki fikr va g'oyani yaratadigan, shakllantiradigan qism ekanligini tadqiq qiladi [2]. M.Black metaforani aniqlash, turli tillarda tarjima qilish, metafora va o'xshatish o'rtasidagi farqni topish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Metaforani grammatika va fonetikada o'rganish to'g'ri emas, u ko'roq semantikaga yaqin deya e'tirof etadi. Metafora ma'no bilan bog'liq bo'lib, bir xil metafora turli tillarga tarjima qilinsa ham bir xil ma'noga ega bo'ladi.

Yangi davrda olimlari metaforani kognitiv tomondan o'rganib chiqq boshladilar. Metafora tafakkur va idrok mahsuli ekanligi J. Reddy, George Lakoff va Mark Johnson kabi tadqiqotchilar tomonidan isbotlab berildi va tahlil qilindi.

Biz kundalik hayotimizda foydalanuvchi konseptual tizim tabiatan metaforik hisoblanadi. Konsept va konseptual metaforaga misol keltirish orqali tahlil qilib o'tsak. Argument (bahs) konseptini, bahs urushdir (argument is war) konseptual metaforasini tahlil qilib chiqsak. Ushbu konseptual metafora kundalik tizimimizda turli xil iboralar orqali vujudga keladi:


Your claims are indefensible – sizning da'volaringiz asossizdir.

He attacked every weak point in my argument – u bahs davomida mening har bir zaif nuqtamga hujum qildi.

His criticisms were right on target – uning tanqidlari o'rinli edi.

I demolished his argument – men uning baxsiga chek qo'ydim.

I have never won an argument with him – men u bilan bo'lgan bahsda hech ham g'alaba qozonmaganman.



Birinchi blok the world out there dan boshlanib, ushbu blok insondan tashqari olamda bor bo'lgan predmet, hodisa, voqea va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Inson til orqali to'g'ridan-to'g'ri tashqi olamni emas, balki inson ongida shakllangan tasvirni ifodalaydi. Ikkinchi blok idrok deb nomlanib, tashqi olamdagi obyektlar sezgi organlari orqali ongga kirib boradi. Ushbu jarayonda ham hali axborot tilga bog'lanmagan hisoblanadi. Biz ko'rib, eshitib, ushlab yoki hid orqali obyektmi miyamizga yuboramiz. Shundan so'ng miya jarayonning uchinchi bosqichida idrok qilingan ma'lumotni konsept ya'ni tushunchaga aylantiradi. Konsept til va tafakkur o'rtasidagi markaziy bo'g'in hisoblanadi. To'rtinchi bosqichda konsept lingvistik jihatdan ma'no kasb etish uchun leksik, grammatik, pragmatik shakl oladi. Jarayonning uchbu bosqichida o'qlar ikkita bo'lib, birinchi navbatda tushuncha til

You disagree? Okay, shoot! – siz qarshimisiz? Yaxshi, jim turing!

If you use this strategy, he will wipe you out – agar siz ushbu strategiyadan foydalansangiz, u sizni yo'q qiladi [3].

George Lakoff ushbu turdagi metaforani strukturaviy metafora deb nomlaydi va tahlil qiladi. Ushbu iboralar va gaplar bahs-munozaraga kirishganimizda ko'p kuzatiladi. Bu yerda konseptual metaforani tahlil qilib chiqar ekanmiz, har bir gapimizda baxs konsepti urush konseptiga o'xshatilganiga guvoh bo'lamiz. Yana bir jihatiga e'tibor qaratsak, baxs urush konseptiga o'xshatilar ekan faqatgina urush ma'nosida emas, balki urush vaqtda foydalaniladigan qolgan so'zlar ham bahsga moslashib ketadi. Masalan, biz bahsga kirishar ekanmiz yutamiz yoki yutqazamiz, bahs bog'lagan insonimizni dushman sifatida ko'ramiz, turli xil strategiya tuzgan holda bahslashamiz, agar biz tutayotgan pozitsiya yutishga yordam bermasa, boshqa pozitsiyaga osongina o'tib olamiz. Ko'rib turganingizdek, biz bahs uchun ishlatayotgan ko'plab so'zlar urush konseptidan kelib chiqmoqda. Bu yerda jismoniy kurash ketmasa ham, so'z orqali bellashuv ketadi. Argument is war konseptual metaforasi biz bugungi davrda ishlatuvchi metaforalardan biridir.

Mark Jonson va George Lakoff metaforani turli jahada o'rganar ekanda, uni fazoviy o'lchamlar bilan ham bog'lab ko'radi. Xususan, xursandchilik bu ko'tarilish, xafa bo'lish esa tushishdir. Inson baxtiyor bo'lganida qaddi baland, og'ir sinovli vaqtlarda esa qaddi bukilgan holatda bo'ladi. Bu o'xshatish ham metaforaning aql va tafakkur bilan bog'liq ko'rinishidir.

Happy is up: I'm felling up. That boosted my spirits. My spirits rose. You are in high spirits.

Sad is down: I am feeling down. I'm depressed. He's really low these days.

1990-yildan hozirgi kunga qadar metafora amaliy jihatdan tahlil qilinib, ta'naviy-tajribaviy nuqtayi nazaridan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu davr namoyondalari Eleanor Rosch va Mark Johnson hisoblanadi. Eleanor Rosch metaforani kognitiv nazariyalar bilan bog'lar ekan, kategoriyalashning prototip nazariyasini ishlab chiqadi. Ushbu nazariyada har bir turkumlarni tizimlashtirishda markazda turuvchi prototip va unga yaqinligigga qarab qolgan turkumlarni joylashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyida Vyvyan Evans tomonidan shakllantirilgan jarayon orqali kognitiv tilshunoslikni chuqurroq tushunishimiz mumkin.

ma'nosini shakllantiradi so'ng til ma'nosi qayta tushunchani yaratadi. Bu kognitiv paradigmaning muhim g'oyasi til faqatgina fikrni ifodalamaydi, balki uni shakllantiradi ham. So'nggi bosqichda lingvistik ma'no konkret shakl orqali namoyon bo'ladi. Bir konseptni turli shakllarda ifodalash mumkin: so'z, so'z birikmasi, gap yoki matn. Vyvyan Evans (2019) ta'kidlaganidek, tashqi olamdan olinadigan sezgi axborotlari yagona mental tasvirga birlashadi va aynan shu jarayon natijasida tushuncha shakllanadi. Til birliklari esa bevosita fizik obyektga emas, balki ongda shakllangan konseptga murojaat qiladi [4].

Ma'no shakllanishida kontekst va freym tushunchalari muhim o'rin tutadi. Til birliklari muayyan vaziyatga oid bilim strukturalarini faollashtirib, nutq ishtirokchilarining talqinini ma'lum yo'nalishga soladi. Natijada bir xil til birligi turli

diskursiv muhitlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Bu esa ma'noning faqat til tizimi bilan emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Aynan ma'noning bunday konseptual va kontekstual xususiyatlari konseptual metafora nazariyasining shakllanishiga zamin yaratadi. Chunki metafora kognitiv mexanizm sifatida insonning abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida konseptualizatsiya qilish usulini ifodalaydi va diskurs jarayonida muhim talqin vositasiga aylanadi.

Kognitiv tilshunoslik orqali biz muloqotda so'zlar shunchaki aytilmasligi, balki u ongdagi murakkab kognitiv jarayon ekanini o'rgana olamiz. Kundalik ijtimoiy muloqotda til interaktiv funksiyani bajaradi. Natijada, til faqat shakl va ma'noni bog'lab bermaydi, aksincha u insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni amalga oshiradi. Gapiroyotgan inson til orqali fikrni uzatadi, tinglovchi uni koddan chiqaradi va talqin qiladi, bu jarayonda ongdagi mental stimulatsiyalar hosil bo'ladi.

Tilshunoslikning kognitiv yo'nalishida nutq aklari ham dolzarb mavzu sifatida tahlil qilinmoqda. Jumladan, nutq aklariga konseptual modellari asosida shakllangan kognitiv jarayon natijasi sifatida qaraladi. Masalan, nikoh marosimida aytiladigan I now pronounce you husband and wife kabi preformativ birliklar ijtimoiy realikni o'zgartiruvchi kuchga ega bo'lib, bu jarayon til - harakat yoki so'z - amal kabi konseptual metaforalar asosida tushuniladi. Ushbu metaforik model doirasida til voqelikni ifodalovchi vosita emas, uni shakllantiruvchi mexanizm sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Bundan tashqari, buyruq shaklidagi nutq aklari diskurs doirasida ijtimoiy ierarxiya va kuch munosabatlarini namoyon etadi. Bunday holatlarda muloqot - kuch maydoni yoki ijtimoiy munosabat - vertikal tuzilma kabi konseptual metaforalar faollashib, nutqning pragmatik talqinini yo'naltiradi. Shu tariqa, nutq aklari diskursiv muhitda konseptual metaforalar orqali talqin qilinib, muloqot ishtirokchilarining kognitiv va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora muhim ahamiyat kasb etib, so'zlarning mavjud ma'nosi metaforik xaritalash orqali yangi ma'no kashf etadi. Ushbu nazariya George Lakoff va Mark Johnsonlar (1980) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bugungi kunda nazariyaning turli sohalarda va yondashuvlarda o'rganish dolzarbdir. Ushbu maqolada nazariyaning publitsistik diskurs materiallari orqali tahlil qilib chiqamiz.

Konseptual metafora nazariyasida maqsad va manba domenlari ishtirok etib, abstrakt tushunchalar konkret va jismoniy tajriba asosida insonga yetqazib berish jayayonini

Manba domen (sun'iy reallik)	Maqsad domen (ijtimoiy media)
Artificial construction	Platforma dizayni
Distorted image	Haddan tashqari ekstremal content
Filtered view	Tanlab ko'rsatilgan postlar
Staged scenes	Idealizatsiyalangan hayot tasviri
Illusion	Soxta ijtimoiy normalar
Viewer	Foydalanuvchi
Misperception	Normani noto'g'ri idrok qilish

Inson ongi ijtimoiy mediada ko'rinayotgan narsani, haqiqatning o'zi emas, balki yaratilgan versiyasi sifatida konseptualashtiradi. Publitsistik va ilmiy diskursda bu metafora tanqidiy baholashni kuchaytirib, o'quvchini ogohlantiradi. Online va offline realikni qarama-qarshi qo'yib, normative xulosa chiqarishga undaydi.

Xulosa va takliflar. Konseptual metafora nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning ajralmas qismlaridan biri bo'lib,

tashkil qiladi. Ushbu jarayonda bitta konseptual soha orqali boshqa abstrakt soha aniqroq tushuniladi. Konseptual soha manba domeni hisoblansa, abstrakt tushuncha maqsad domenidir. Metafora kognitiv va diskursiv yondashuvlarda o'rganilganda quyidagi xulosalar kelib chiqishi mumkin:

Kognitiv yondashuvga ko'ra metafora tafakkur mexanizmidir va u inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglashiga ko'maklashadi.

Diskursiv yondashuvga ko'ra esa, metafora real nutq jarayonida yuzaga kelib, muayyan ijtimoiy, madaniy va pragmatic kontekst bilan bog'langan bo'ladi.

Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra metafora kognitiv asosga ega, ammo u diskursda yanada faollashadi. Konseptual metafora inson ongida mavjud bo'lib, diskursda ishlaydi. Bu integrativ qarash publitsistik, badiiy, siyosiy va akademik diskurslarni tahlil qilishda samaralidir.

Quyida bir necha misollarni ikki yondashuv orqali tahlil qilib chiqaman.

misol: "social media is akin to a funhouse mirror, reflecting and warping our collective sense of what is normative" [5] - ijtimoiy media bizning meyoriy narsalar haqidagi umumiy tuyg'ularimizni aks ettiruvchi va buzadigan kulgili oynaga o'xshaydi.

Kognitiv yondashuvda tahlil qiladigan bo'lsak, Social media is a funhouse mirror

Manba domeni: funhouse mirror (atraksionlardagi qiyshaytiruvchi oyna)

Maqsad domeni: ijtimoiy media, onlayn muhit

Xaritalash:

Reflection - aks ettiruvchi

Distortion - normaning buzilishi

Viewer - foydalanuvchi

Abstrakt hodisa (ijtimoiy normani idrok etish) jismoniy ko'rish tajribasi orqali tushuntirilmogda

Diskursiv yondashuvda metafora tanqidiy baholash vazifasini bajarib, ijtimoiy mediaga nisbatan ishonchsizlik va ogohlantirish diskursini yaratadi. Ilmiy maqolaga kuchli publitsistik ta'sir bergan hisoblanadi.

misol: "social media creates a funhouse mirror version of reality" - ijtimoiy tarmoqlar haqiqatning ko'zgu versiyasini yaratadi.

Social media creates a false reality

Manba domen: False reality

Maqsad domeni: Social media

Konseptual xaritalaganimizda:

muntazam ravishda o'rganib borishni talab qiladi. Mazkur maqolada publitsistik diskursda konseptual metaforalarning ishlatilishi kognitiv va diskursiv yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, metafora publitsistik matnlarda faqat stilistik bezak vazifasini bajarmaydi, balki ijtimoiy hodisalarni konseptualashtirish, baholash va auditoriya idrokini shakllantirishda muhim kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. A. Richards. The philosophy of rhetoric. - New York: Oxford university press, 1936. - 139b
2. Max Black. Models and metaphors studies in language and philosophy. - New York: Cornell university Press, 1962. - 267b
3. G. Lakoff, M. Johnson. Metaphors we live by. - Chicago: University of Chicago press, 1980. - B4
4. Vyvyan Evans. Cognitive linguistics: a complete guide. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 2019. - B. 896.
5. Claire E. Robertson, Kareena S. del Rosario, Jay J. Van Bavel, Inside the funhouse mirror factory: How social media distorts perceptions of norms, Current Opinion in Psychology, Volume 60, 2024, 101918, ISSN 2352-250X